

TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA KOMPITENTLIGI: TA'LIM SIFATI VA IJODIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Xo'jaqulov Ro'zibek Ilxomjon o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: xujakulovruzibek@gmail.com

Annotatsiya: maqolada tasviriy san'at o'qituvchilarining kompetensiyasi va kompetentligi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va estetik salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi yoritilgan. Kompetent pedagog innovatsion metodlarni qo'llay oladi, milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtiradi hamda o'quvchilarda kreativ va mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Shu orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi va yoshlar yetuk mutaxassis sifatida yetishadi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, kompetensiya, kompetentlik, pedagogik mahorat, ijodiy rivojlanish, ta'lim sifati, innovatsion metodlar, estetik tarbiya.

PROFESSIONAL COMPETENCE AND EXPERTISE OF VISUAL ARTS TEACHERS: ITS ROLE IN EDUCATION QUALITY AND CREATIVE DEVELOPMENT

Khojakulov Ruzibek Ilkhomjon ogli

Master's Student, Gulistan State Pedagogical Institute

e-mail: xujakulovruzibek@gmail.com

Abstract: this article highlights the role of visual arts teachers' competence and expertise in enhancing the quality of education and fostering students' creative and aesthetic potential. A competent teacher can apply innovative methods, integrate national and contemporary values, and cultivate students' creative and independent thinking. Consequently, the effectiveness of the educational process increases, contributing to the development of students into highly qualified specialists.

Keywords: visual arts, competence, expertise, pedagogical mastery, creative development, education quality, innovative methods, aesthetic education.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasi mutaxassislari rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish, mavjud iqtisodiy va intellektual resurslarni samarali hisobga olish hamda mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda jamiyat hayotida yangi islohotlarni amalga oshirishga intilmoqdalar [1:12]. Bu jarayon nafaqat ta'lim tizimini modernizatsiyalash, balki zamonaviy talablar darajasida kadrlar tayyorlash, yosh avlodni bilim va ko'nikmalar bilan boyitishga qaratilgan

muhim strategik vazifa hisoblanadi. Turli sohalarda amalga oshirilayotgan hamkorlik natijasida sezilarli yutuqlarga erishilayotgan bo'lsa-da, ushbu yutuqlarni yanada boyitish, ta'lim tizimidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va yuqori sifatli natijalarga erishish ta'lim sohasi fidoyilaridan alohida shijoat, fidokorlik, qat'iyat va mas'uliyatni talab qiladi [2:34]. Shu bilan birga, ta'lim tizimining rivojlanishida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan metodologik yondashuvlarni tatbiq etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy oshirib borish eng dolzarb vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda Respublikamizda fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va yosh avlodni intellektual hamda estetik jihatdan boyitishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi F-4947-sonli Farmoniga binoan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjatning 4-qismi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"ga bag'ishlangan bo'lib, unda aholi hayot sifatini yaxshilash, yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar belgilangan [3:266-269]. Strategiyada ishlatilgan ramziy belgi – qizil rang – hayot, kuch va aholining munosib turmush tarzini ifodalaydi.

Mazkur strategiya doirasida yoshlarning bilim olish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ularni jamiyatning har tomonlama yetuk a'zosi sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kreativ pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali yoshlarning intellektual va estetik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniyati yaratiladi [4:22]. Shu bilan birga, ta'lim tizimining bu sohalarda jadal rivojlanishi, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ham yordam beradi.

2019 yil 19 martda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarga madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, shuningdek, axborot texnologiyalari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallash va kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida "Besh muhim tashabbus" ilgari surildi. Ushbu tashabbus mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning birinchi qismi aynan yoshlarning musiqa, tasviriy san'at, adabiyot, teatr va boshqa san'at turlariga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning iste'dodlarini yuzaga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi [4:22]. Shu bilan birga, tashabbusning amalga oshirilishi yoshlar orasida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, estetik didni rivojlantirish, ijodiy tafakkur va zamonaviy san'at olamiga qiziqishni uyg'otish kabi muhim pedagogik vazifalarni ham o'z ichiga oladi.

Tasviriy san'at nafaqat yurtimiz tarixida, balki bugungi kundagi madaniy hayot va kelajak avlodning estetik tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning rivoji yurt ravnaqi va farovonligini ta'minlashdagi beqiyos rolini ta'kidlaydi. Shu bois, tasviriy san'at o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki amaliy jihatdan yuqori malakali pedagog kadr sifatida tayyorlash zarurdir [5:118]. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bu jarayonda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi: o'qituvchilarning ijodiy tafakkuri, amaliy ko'nikmalari, estetik didi va pedagogik mahorati ushbu tushunchalar orqali shakllantiriladi va bu esa ta'lim sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisining kompetentligi nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan chegaralanmay, balki yoshlarni san'at orqali tafakkurga, estetik sezgirlikka va ijodiy yondashuvga o'rgatish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'z bilim va mahoratini amalda qo'llay olishi, innovatsion pedagogik metodlarni tatbiq etishi, shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llashi lozim. Shu bois, tasviriy san'at pedagogik jarayoni ilmiy asoslangan, ijodiy va estetik jihatdan boy bo'lishi bilan ajralib turadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [6:1490]. Shu nuqtai nazardan, ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagoglarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida ko'riladi [7:462]. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifatini tubdan oshirishga, balki yosh avlodning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi [4:22]. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va ularni maqsadli yo'naltirish orqali oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasida kompetensiya tushunchasi bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki pedagoglarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyati, muammolarni hal etish, yangi metodlarni ishlab chiqish va tatbiq etish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Kompetent mutaxassis o'z faoliyatida yangiliklarni muvaffaqiyatli tatbiq etadi, zamonaviy pedagogik metodlarni o'zlashtiradi va ularni o'quv jarayonida samarali qo'llay oladi [8:623]. Shu tariqa, kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki amaliy faoliyatda innovatsion va ijodiy yondashuvlarni amalga oshirish qobiliyatini ham anglatadi.

Tarixiy jihatdan, o'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniy kabi olimlar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan axloqiy va kasbiy sifatlar haqida o'z qarashlarini ilgari surib, pedagogik madaniyatning muhimligini namoyish etganlar [6:1490]. Shu sababli samarali pedagogik faoliyat uchun har bir o'qituvchi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi shart, bunda ijodiy yondashuv, kreativ fikrlash, metodik yangiliklarni qo'llay olish va shaxsiy pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish asosiy omillar sifatida e'tiborga olinadi [1:14]. Bugungi kunda esa, pedagogning kompetentligi nafaqat o'quv jarayonida bilim

berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlik va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, pedagogning muvaffaqiyati va ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Kompetensiya so'zi lotincha "competero"dan olingan bo'lib, "mos kelmoq", "qodir bo'lmoq", "loyiq bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi [2:45]. Ta'lim kontekstida kompetensiya – shaxsning ma'lum bir sohada zarur bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lishi hamda ularni samarali qo'llay olish qobiliyatini bildiradi [3:268]. Tasviriy san'at darslarida bu kompetensiya ranglarni uyg'unlashtirish, badiiy tafakkur va estetik didni rivojlantirish, ijodiy yechimlarni topa olish, san'at asarlarini tahlil qilish va tanqidiy yondashish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Kompetentlik esa pedagogning o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash, ijodiy rasm ishlash, haykal yaratish, yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni uddaburonlik bilan hal qilish kabi qobiliyatlarini ifodalaydi [9:3]. Shu nuqtai nazardan, kompetensiya – nazariy tayyorgarlikni, kompetentlik esa amaliy faoliyatni anglatadi [10:6985]. Bu ikki tushuncha bir-birini to'ldiradi va o'quvchilarning tasviriy san'atga qiziqishi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi qay darajada kasbiy kompetent ekanini uning o'quvchilari erishgan natijalari orqali baholash mumkin. Ustoz shogirdiga bilim va ko'nikmalarni yetarlicha shakllantira olishi, ularni real hayotda qo'llash imkonini yaratishi ustozning kompetentlik darajasini belgilaydi [11:5]. Shu sababli, o'qituvchi doimiy ravishda nazariy va amaliy bilimlarini oshirib borishi, zamonaviy metod va texnologiyalarni o'zlashtirib, pedagogik faoliyatini rivojlantirishi zarur [12:6985]. Tasviriy san'at darslari chuqur bilim va uzoq yillik amaliy ko'nikmalarni talab qiladi. Nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan birlashtirilganda o'quvchilar ko'rish, eshitish, o'qish va amalda qo'llash orqali

bilim va ko'nikmalarni mustahkam egallaydilar [13:1033]. Ranglarni hosil qilish, mo'yqalamni to'g'ri ushlab, materiallar bilan ishlash kabi amaliy ko'nikmalar esa o'qituvchidan yuqori darajadagi mahorat va estetik sezgi talab qiladi [8:624]. Shu bilan birga, kompetent o'qituvchi nafaqat o'z sohasini, balki unga yaqin bo'lgan boshqa fanlarni ham yetarli darajada bilishi lozim [14:5]. Masalan, tarix, madaniyatshunoslik, dizayn va hatto kompyuter grafikasi bo'yicha bilimlar o'qituvchiga o'quv jarayonini boyitish va yangi metodlarni tatbiq etishda yordam beradi.

Xorijiy tillarni bilish va chet el tajribasini o'zlashtirish orqali tasviriy san'at o'qituvchisi ilg'or pedagogik yondashuvlarni amalda qo'llay oladi va shaxsiy kompetentligini oshiradi. Shu tariqa, zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki ijodkor, metodik jihatdan boy va pedagogik salohiyatga ega mutaxassis bo'ladi.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalq merosi ham tasviriy san'at orqali yosh avlodga yetkaziladi. Milliy rassomlarning asarlaridan foydalanish, ranglardan ishlash uslublarini o'rganish va qo'llash o'quvchilarda milliy va estetik didni shakllantiradi, shuningdek, ularning san'atga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi [7:464]. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, innovatsion metodlarni tatbiq etish va darslarning samaradorligini oshirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi [5:119].

Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentligi – bu pedagogik va estetik faoliyatni yuqori sifatda amalga oshirishga, o'quvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga tayyorligini bildiradigan integral shaxsiy malaka hisoblanadi [9:4]. Kompetent o'qituvchi nafaqat darslik materiallarini yetarlicha tushuntiradi, balki o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, rang va kompozitsiyani tanlashda ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi, shuningdek, ularni estetik did va badiiy tafakkur bilan boyitadi.

Yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik o'quvchilarning san'at olamiga qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil ijodiy fikrlashga undaydi va kelajakda yetuk

mutaxassis bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi [10:6987]. Shu bilan birga, pedagogning kasbiy kompetentligi darslarda innovatsion metodlarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish, shuningdek, milliy va zamonaviy san'at yo'nalishlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda nafaqat san'atga qiziqish, balki muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni yaratish va kritik tafakkur kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Shunday qilib, tasviriyl san'at o'qituvchilarining kompetensiyasi va kompetentligi ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarda ijodiy va estetik qobiliyatlarni shakllantirishda, milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Kompetentlik nafaqat tasviriyl san'at sohasida, balki ta'limning barcha yo'nalishlarida eng muhim jarayon sifatida e'tirof etiladi. U orqali yoshlar ilmga ishtiyoqmand, kreativ, mustaqil fikrlovchi va samarali mutaxassis sifatida yetishadi [15:356]. Shu tariqa, pedagogning shaxsiy malakasi va professional yondashuvi o'quvchilarning ilmiy va ijodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ta'lim jarayonini yuqori sifatli, samarali va innovatsion darajaga olib chiqadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlash uchun pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriyl san'at o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va amaliy tajribasini muntazam rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning ijodiy va estetik salohiyatini oshirishga, balki ularni tanqidiy va innovatsion fikrlashga yo'naltirishga xizmat qiladi. Kompetent o'qituvchi dars jarayonida innovatsion metodlarni qo'llay oladi, milliy va zamonaviy san'at qadriyatlarini uyg'unlashtiradi, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan, pedagogning kompetensiyasi va kompetentligi ta'lim tizimining sifatini oshirish, o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va kelajak avlodni yetuk, kreativ va ijtimoiy faol mutaxassis sifatida tarbiyalashda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida kompetensiya nazariy tayyorgarlikni, kompetentlik esa amaliy faoliyatni ifodalaydi, bu esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada samarali shakllantirishga imkon beradi. Shu bilan birga,

tasviriy san'at orqali milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish va ularning estetik tafakkurini rivojlantirish ham pedagogning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Natijada, kompetent va malakali pedagog nafaqat o'z fani bo'yicha bilimli bo'lishi, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy talablarga moslashgan, ijodiy va mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida yetishtirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES

1. D.X.Aslanova, F.F.Salamov, Y.M.Xalikov, "Kasbiy kompetentlik". Samarqand, 2020.
2. A.A.Berikbayev. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish (Monografiya). T.: "Grand kondor print", 2024.
3. Shakarbek o'g'li I. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA USUL VA VOSITALAR //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – T. 14. – №. 01. – C. 266-269.
4. Khojamkulov, R. (2024). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(5). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N57>.
5. Baxtiyarova , F. (2023). MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS. Ilm-Fan Va ta'lim, 1(1). извлечено от <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/120>.
6. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677>.
7. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
8. Xo'jaqulov, Ro'zibek. "BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.2 (2025): 622-625.

9. Xo'jaqulov Ro'zibek Ilxomjon o'g'li. (2025, октябрь 21). TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA KOMPETENSIYA VA KOMPITENTLIKNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17403618>.
10. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
11. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
12. Berikbaev, Alisher Alikulovich. "Development of competence skills of art education students." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.4 (2020): 6984-6988.
13. Khayrov Rasim., Inoyatov O.S., Nuralieva Z.A., Xudoyberdiev D.R., Mirzaqulov I.X. APPLICATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS. <https://cahiersmagellanes.com/index.php/CMN/article/view/1033/833>.
14. Imomov Fozil Shakarbek o'g'li. (2025, октябрь 24). MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17433530>.
15. Odiljon I., Gulnoza H. TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O 'RGATISH //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 355-358.